

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH

*Qo`shinlarning kundalik faoliyatini boshqarish
kafedراسi katta o`qituvchisi
podpolkovnik D.Tursumatov*

“Harbiy kadrlar, birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo`lgan va zamonaviy fikrlaydigan, intellektual etuk oficerlarni, shuningdek, bugungi kunda armiyamizning o`zagini tashkil etayotgan yuksak professional malakali kichik komandirlar-serjantlarni tarbiyalash tizimini tubdan yaxshilash ham Qurolli Kuchlar qo`mondonligi faoliyatining eng muhim yo`nalishlaridan biri bo`lishi darkor” - deb ta`kidlaydi Prezidentimiz.

O`zbekiston Respublikasi Konstituciyasining 52-moddasiga binoan «O`zbekiston Respublikasini himoya qilish - O`zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o`tashga majburdirlar.

O`zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to`g`risidagi” qonuniga asosan umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O`zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo`ladi, hamda O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to`ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta`minlash maqsadida joriy etiladi.

Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo`yicha harbiy xizmat o`tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro`yxatdan o`tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O`zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo`lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

Ushbu Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to`g`risidagi qonunga muvofiq O`zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari, xususan:

harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar - chaqiriluvchilar;

haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar - harbiy xizmatchilar;

Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxiradagi shaxslar - harbiy xizmatga majburlar;

turli sabablarga ko`ra harbiy ro`yxatga olinmagan yoki harbiy ro`yxatdan chiqarilgan, shu jumladan iste`fodagi shaxslar - harbiy xizmatga majbur bo`lmagan shaxslar deb ataladi.

Haqiqiy harbiy xizmat chaqiruv yoki kontrakt bo`yicha oddiy askarlar, serjantlar va oficerlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Umumiy harbiy majburiyat O`zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarga tadbiiq etilmaydi.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt asosida) kirgan fuqarolar O`zbekiston Respublikasining xalqi va Prezidentiga sodiqlik to`g`risida harbiy qasamyod qabul qiladilar. [1]

Muqaddam harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majburlar harbiy yig`inlarga jalb etilganlarida yoki safarbarlik bo`yicha chaqirilganlarida harbiy qasamyod qabul qiladilar.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etilgan:

muddatli harbiy xizmat;

safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;

kontrakt bo`yicha harbiy xizmat;

O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o`tagan rezervchilar xizmati. [2]

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o`n sakkiz

yoshdan yigirma etti yoshgacha bo`lgan, salomatligiga ko`ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o`tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

Muddatli harbiy xizmat

Muddatli harbiy xizmat chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o`tamagan oficerlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir. Muddatli harbiy xizmat muddatlari kalendar hisobida:

muddatli harbiy xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o`tayotgan harbiy xizmatchilar uchun - o`n ikki oy (oliy ma`lumotli shaxslar uchun - to`qqiz oy);

muddatli harbiy xizmatni chaqiruv bo`yicha oficerlar tarkibi lavozimlarida o`tayotgan oficerlar uchun - to`qqiz oy qilib belgilanadi.

Muddatli harbiy xizmatni o`tash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat

Muddatli harbiy xizmatni o`tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo`lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy princip asosida oylik yig`inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O`zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus hisob varag`iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Kontrakt bo`yicha harbiy xizmat

Kontrakt bo`yicha harbiy xizmat Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo`yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va oficerlar tarkibi lavozimlarida o`taydilar.

Harbiy xizmatni o`tash muddatlari va asosiy shartlari kontraktida belgilanadi. Ayni paytda dastlabki kontrakt xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va oficerlar tarkibi lavozimlarida o`tash bo`yicha besh yil muddatga tuziladi.

Oliy harbiy ta`lim muassasalarining kursantlari bilan o`qish davri uchun kelgusida ularning oficerlar tarkibi lavozimlarida harbiy xizmatni kamida besh yil majburiy o`tash sharti bilan kontrakt tuziladi.

Harbiy xizmatning kontraktida nazarda tutilgan muddati tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi bilan bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin. Kontrakt bo`yicha harbiy xizmatni o`tash tartibi va muddatlari O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o`tashi tartibi to`g`risidagi nizom bilan belgilanadi.

Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o`tagan rezervchilar xizmati

Rezervchilar xizmati haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safarbarlik chaqiruvidagi xizmatni o`tagan oddiy askarlar, serjantlar va oficerlar jumlasidan bo`lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo`shilmalari, qismlari va bo`linmalari safini urush davrida taqoza etiladigan shtatlar darajasiga qadar to`ldirish, shuningdek urush davri taqoza etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Kontrakt bo`yicha harbiy xizmatga kirish

Harbiy xizmat talablariga javob beruvchi quyidagi fuqarolar ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo`yicha):

o`ttiz yoshgacha bo`lgan, harbiy hisobdagi ixtisoslik bo`yicha tegishli kasbiy tayyorgarlik ko`rmagan harbiy xizmatga majburlar va ayollar - oddiy askarlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

muqaddam kontrakt bo`yicha harbiy xizmatni o`tagan oddiy askarlar va serjantlar tarkibidagi qirq yoshgacha bo`lgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek

muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervdagi xizmatni o`tagan va harbiy hisobdagi ixtisoslik bo`yicha tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega o`ttiz yoshgacha bo`lgan harbiy xizmatga majburlar - oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

o`ttiz yoshgacha bo`lgan harbiy xizmatga majbur ayollar - oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

o`n etti yoshdan yigirma bir yoshgacha bo`lgan fuqarolar, shu jumladan o`qishga qabul qilingan yili o`n etti yoshga to`ladigan fuqarolar, shuningdek harbiy ta`lim muassasalarida o`qish istagini bildirgan, oficerlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo`lmagan, o`n sakkiz yoshdan yigirma besh yoshgacha bo`lgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar - harbiy - ta`lim muassasalarining kursantlari tariqasida harbiy xizmatga;

qirq yoshgacha bo`lgan rezervdagi va zaxiradagi oficerlar - oficerlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga kiradilar.

Kontrakt bo`yicha harbiy xizmatga kirayotgan fuqarolar majburiy tibbiy ko`rikdan o`tadilar.

Fuqarolar harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo`mitasi va idora bilan harbiy xizmatni o`tash to`g`risida kontrakt tuzadilar.

Kontraktlar tuzish, shu jumladan oliy harbiy ta`lim muassasalarining kursantlari bilan kontraktlar tuzish, shuningdek kontrakt bo`yicha harbiy xizmatni o`tash tartibi O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o`tash tartibi to`g`risidagi nizom bilan belgilanadi. [2]

Oliy harbiy ta`lim muassasalariga o`qishga kirish tartibi

Bilim yurti bitiruvchilari oliy harbiy ma`lumot, oliy ma`lumot to`g`risidagi diplom va Davlat ta`lim standartiga mos fuqarolik mutaxassisligiga ega bo`lishadi.

Bilim yurtlariga o`qishga kirish istagini bildirgan shaxslar o`qishga kirish yilining 1 apreliyigacha yashash joyidagi tuman yoki shahar mudofaa ishlari bo`limiga (muddatli va kontrakt bo`yicha harbiy xizmatchilar 1 apreliyigacha qism

komandirlarining nomiga raport) ariza beradilar. Arizada (raportda) familiyasi, ismi, otasining ismi, tug`ilgan yili va oyi, turar joyining manzilgohi, harbiy bilim yurtining nomlanishi ko`rsatiladi.

Arizaga tarjimai hol, ish joyi yoki o`qish joyidan tavsifnoma, o`rta ma`lumoti haqidagi hujjatning nusxasi, uchta fotosurat (bosh kiyimsiz, 4,5x6 sm o`lchovda) ilova qilinadi.

Pasport, harbiy guvohnoma yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma, o`rta ma`lumoti haqidagi hujjatning asl nusxasi nomzod tomonidan harbiy bilim yurtining qabul qomissiyasiga ko`rsatiladi.

Tibbiy ko`rik, kasbiy-ruhiy va jismoniy tayyorgarlik bo`yicha tanlov Mudofaa vazirligining qabul komissiyasi tomonidan o`tkaziladi. Jismoniy qobiliyatlarning bahosi quyidagicha parametrlar bo`yicha aniqlanadi:

kuch (turnikda tortilish);

chidamlilik (kross - 3000 m);

tezlik (yugurish - 100 m).

Bilim yurtiga o`qishga kiruvchilar tibbiy ko`rik, kasbiy-ruhiy va jismoniy tanlovlardan o`tganlaridan so`ng 10 iyul` kuni Davlat test sinovini topshiradilar/

O`qishga kirishdagi qo`shimcha imtiyozlar

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 31 maydagi PQ-1765 sonli qaroriga asosan oliy ta`lim muassasalariga o`qishga kiruvchi, harbiy xizmat davrida jangovar va ma`naviy-ma`rifiy tayyorgarlikda yuqori natijalarga erishgan muddatli harbiy xizmatni tamomlab, o`rnatilgan shakldagi tavsiyanomaga ega bo`lgan fuqarolarga test sinovlarida to`planishi mumkin bo`lgan eng ko`p ballning 27 foizi miqdorida qo`shimcha imtiyoz beriladi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 12 apreldagi 170-sonli "O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari serjantlarining maqomi to`g`risidagi" qaroriga asosan 5 yil davomida serjantlar tarkibi lavozimlarida benuqson xizmat qilgan harbiy xizmatchilarga test sinovlarida to`planishi mumkin

boʻlgan eng koʻp ballning 20 foizi miqdorida qoʻshimcha imtiyoz beriladi hamda “Eng ilgʻor serjant” tanlovining respublika bosqichi gʻoliblari oliy harbiy taʼlim muassasalariga tanlov (konkurs)dan tashqari qabul qilinadilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevraldagi PF-555 son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy ragʻbatlantirish toʻgʻrisida”gi 2008 yil 13 oktyabrdagi 226-sonli qaroriga muvofiq, tegishli vazirlik yoki idora tomonidan belgilangan tanlovdan (yakuniy tibbiy tekshiruv, ruhiy tanlov, jismoniy tayyorgarlik sinov va hokozalar) oʻtgan Xalqaro va Respublika fan olimpiadalari gʻoliblari tegishli oliy harbiy taʼlim muassasalariga mutaxassislik yoʻnalishining asosiy faniga muvofiqligi boʻyicha Davlat komissiyasining qarori bilan oʻqishga test sinovlarisiz qabul qilinadilar.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 17 fevralidagi 21-sonli qaroriga muvofiq oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kiruvchi harbiy-akademik liceylarning bitiruvchilariga ular toʻplagan ballar soniga qoʻshimcha eng koʻp yigʻish mumkin boʻlgan ballning 10 foizi miqdorini qoʻshish yoʻli bilan imtiyozli qabul shartlari beriladi.

2012 yil 26 sentyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 277-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy harbiy taʼlim muassasalariga tinglovchi va kursantlarni oʻqishga qabul qilish tartibi toʻgʻrisidagi Nizom”ga asosan oliy harbiy taʼlim muassasalariga yuklatilgan xizmat vazifalarini bajarish vaqtida halok boʻlgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining farzandlari tibbiy tekshiruv natijalariga hamda tegishli vazirlik va idora rahbarining tavsiyanomasiga asosan Davlat komissiyasining qarori bilan Oliy harbiy taʼlim muassasiga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz qabul qilinadi. [3]

Serjantlar tarkibini tayyorlash

«Serjant bugungi kunda butun armiyaning shaxsiy tarkibini boʻgʻinma-boʻgʻin mustaqil tashkil etadigan, uning qudratini va mahoratini har tomonlama

oshirishga xizmat qiladigan ham murabbiy, ham komandir bo'lishi kerak» - O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom KARIMOV.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari serjantlariga talablar:

armiyaning negizi, armiya va fuqaro yoshlari uchun yuqori harbiy va umumiy madaniyat namunasi va askarlarni tayyorlash va tarbiyalash ishlarida bosh murabbiy bo'lib, oficerlarning birinchi yordamchilari;

o'zida komandir sifati va malakasini hamda harbiy ish mutaxassisligini jamlagan;

bo'linmalarning jangovar shayligi va jangovar tayyorligiga, ularning jangovar vazifalarni bajara olishiga, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatiga javob berishi uchun;

harbiy intizomni, ichki tartibni, qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarni saqlanishiga rioya qilinishini ta'minlashga;

bo'linmalarni Vatanga, harbiy burchga va Harbiy qasamyodga sadoqat ruhida tarbiyalashga, harbiy xizmatchilarning tibbiy, moliyaviy, ijtimoiy-huquqiy va turmush sharoitini ta'minlashga chaqirilgandirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari.
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomi. Toshkent - 2006 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi" qonuni Toshkent - 2003 yil.